

## O'zbekiston Respublikasi Prezidenti AQSHga keldi

---



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 2018 yil 15-may kuni ilk rasmiy tashrif bilan Vashingtonga keldi.**

AQSH poytaxtidagi "Endryus" aeroportida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini AQSH rasmiy vakillari kutib oldi.

Bo'lajak oliy darajadagi muloqotga ikki tomon ham katta e'tibor bilan qaramoqda. AQSH ma'muriyati O'zbekiston Prezidenti tashrifini tarixiy voqea sifatida baholamoqda.

Tashrifning asosiy tadbirlari 16-17 may kunlariga belgilangan. 16-may kuni Shavkat Mirziyoyev Oq uyda Donald Tramp bilan uchrashadi. Muzokaralar avval tor doirada, so'ng kengaytirilgan tarkibda bo'lib o'tadi.



Avval xabar qilinganidek, oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston – AQSH hamkorligining bugungi holati va rivojlantirish istiqbollari muhokama qilinadi. Xalqaro va

mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashish rejalashtirilgan. Vashingtonda davlatimiz rahbari, shuningdek, AQSH Kongressi, Mudofaa vazirligi va Davlat departamenti hamda Jahon bankida ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazadi.

Rasmiy tashrif yakunida ikki mamlakat Prezidentlari "O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari: strategik sheriklik yangi davrining boshlanishi" deb nomlangan Qo'shma bayonotni imzolashi, shuningdek, turli sohalarda o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlashga qaratilgan 40 dan ortiq hujjatlar to'plami qabul qilinishi kutilmoqda.

**O'ZA**